

YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLANTIRISH MASALALARI

*Boymurzayev Isomiddin Azizbek o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika intituti talabasi*

Ma’naviyat masalasi har bir jamiyatda asosiy o‘rinda turishi lozim. Hayot haqiqati shuni ko‘rsatdiki, har qanday taraqqiyot asosida ma’naviyat yotadi. Har qanday tanazzul asosida ma’naviyatsizlik yotadi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “Biz ko‘p yillar davomida ma’rifat va ma’naviyatga noto‘g‘ri munosabatda bo‘ldik. Unga sarflangan mablag‘lar doim boshqa sohalardagidan kam bo‘ldi. Natijada biz bu masalada o‘rqada qolib ketdik”. Darhaqiqat, o‘tgan asr davomida bir qancha sohalarga mablag‘ ajratildi, lekin ma’naviy-ma’rifiy masalaga yetarlicha e’tibor berilmadi.

“Insonni inson qiladigan uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan o‘ringa ega”- dedi, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov.

Ma’naviyatni shakllantirish eng avvalo oiladan boshlanmog‘i darkor. Negaki, inson yoshlik davridan ma’naviyati yuqori oilada tarbiya olmas ekan keyinchalik u ma’naviy saviyasi yuqori bo‘lgan inson bo‘lib shakllanmaydi. Sababi, ma’naviyatlari bo‘lish qisqa vaqt ichida shakllanib qoladigan hodisa emas. Uning shakllanib to yuksak nuqtaga yetgunicha uzoq vaqt talab qilinadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, - “Ma’naviyat”-insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan ,odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan beqiyos kuch”dir.

Ma’naviyatni shakllantiruvchi omillardan yana biri ta’lim tizimidir. Ta’lim tizimi rivojlanmas ekan bu oiladan, bu jamiyatdan, bu davlatdan ma’naviyatlari insonlar yetishib chiqishi amrimahol. Bizga ma’lumki yer yuzidagi dastlabki sivilizatsiyalardan biri Qadimgi Yunonistonning Krit orolida vujudga kelgan. Sivilizatsiyaning vujudga kelishiga geografik omillar ham sabab bo‘ldi. O‘rtayer dengizi qirg‘oqlarida joylashgan Yunonistonda savdo-sotiq, hunarmadchilik va o‘z navbatida ta’lim tizimi ham rivojlandi. Qadimgi Yunoniston o‘lkasidan yetuk olimlar, buyuk faylasuflar yetishib chiqdi. Bunga misol qilib, “Ustozi avval” nomi bilan ulug‘langan Platon, Aristotel, Arximedni aytish mumkin. Ta’lim tizimiga qaratilgan bunday e’tibor Yunonistonni dunyoga tanitdi. Hatto, faylasuf olimlar podshohlarga ham ustozlik qilishdi. O‘z navbatida podshohlar ham keyinchalik bu ilm-fanni bu ta’limni butun dunyoga yoyishga xizmat qilishgan. Bu fikrlarning dalili sifatida Makedoniyalik Aleksandirni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin. M.Aleksandr bosib olgan o‘lkalarga yurish qilishdan oldin ustozi Aristotel bilan maslaxat qilib keyin yurishni amalga

oshirgan. M.Aleksandr O‘rtta Osiyoni bosib olganidan so‘ng, bu yerlarda ham yunon ma’daniyatini, yunon ta’lim tizimini joriy qiladi. Vaqt o’tishi bilan bu o‘z samarasini ko‘rsatdi. Bizning diyorimizdan ham faylasuflar, olimlar yetishib chiqdi. Hattoki ta’lim tizimi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi sababli bu mutaffakirlar o‘sha davr yunon faylasuflarining asarlariga sharhlar bitdi. Aris suvining Sirdaryoga quyilish joyidagi Farob qishlog‘ida tug‘ilib Buxoroda, Bog‘dodda ilm olgan Farobiy “Aristotelning Metafizika asariga sharh”asarini yozgan. Buxoroda tug‘ilib voyaga yetgan Ibn Sino Gippokrat va Galen asarlarini o‘rganib keyinchalik “Tib qonunlari”asarini yozadi. Bu asar XVII- asrga qadar Yevropa tibbiyotida asosiy qo‘llanma sifatida foydalanilgan hozirgi kunda ham foydalanib kelinmoqda. Xorazmnning Kat shahrida tug‘ilib, “Xorazm Ma’mun akademiyasida” faoliyat yuritgan Abu Rayhon Beruniy g‘arbiy yarim sharda katta quruqlik borligi yaqidagi nazariyani ilgari surdi. Beruniyning bu nazariyasi 450 yildan so‘ng italiyalik dengizchi Xristafor Kolumb tomonidan isbotlandi. Bu shubhasiz ilm-fanning yuqori darajada rivojlanganligidan dalolatdir.

Amir Temur va temuriylar davrida madaniyatga, ma’naviyatga va ta’lim tizimiga katta e’tibor berildi. Amir Temur ikkinchi sharq renessansiga asos soldi. Bizga tarixdan ma’lumki mo‘g‘ullar istilosini davrida madaniyatimiz, ma’naviyatimiz oyog‘osti qilindi. Amir Temur hukmronligi davrida butun mamlakatda ma’rifat o‘chog‘ bo‘lgan madrasalar faoliyatiga, e’tibor kuchaytirildi. Madaniyatga, qanday e’tibor berilganligiga Amir Temurning quyidagi jumlesi isbot bo‘la oladi “Kimda kim bizning qudratimizga shubha qilsa qurban imoratlarimizga boqsin”. A.Temurning faoliyatini uning vorislari munosib tarzda davom ettirdi. A.Temurning kenja o‘g‘li Shohrux Mirzoning o‘g‘li Mirzo Ulug‘bek Samarqandda astranomiya akademiyasiga va uning yonginasida kutubxonga asos soldi. M.Ulug‘bek rasadxonasida 1018 ta yulduzning joylashishi va holatlari aniqlangan jadval tuzadi. M.Ulug‘bek kutubxonasida 15 ming jild kitob saqlanganligi haqida ma’lumotlar bor. Toj -u taxtga o‘ch temuriy shahzodalar bu ilmiy merosni munosib tarzda davom ettiraolmadilar. Va shu bilan ilm taraqqiyoti keyinchalik deyarli davom etmadi. Buning asosiy sababi nima? Temuriylar hukmronligidan so‘ng boshlangan uch xonliklar davrida diniymutassiblik natijasida ta’lim tizimining rivojlanishi uchun sharoit yaratilmadi. Xonliklar davridan keyin boshlangan mustamlaka zulmi davrida ham ma’naviyatning, ta’lim tizimining rivojlanishi uchun jiddiy to‘siqlar qo‘yildi. Xalqning ziyoli qismi tuzmga qarshi chiqsa ular ayovsiz tarzda Qatag‘on qilindi, o‘z davlatidan surgun qilindi. XX-asrning oxirida O‘zbekiston mustaqilligini e’lon qilganidan so‘ng kun tartibing birinchi masalasiga ta’lim tizimini rivojlantirish masalasi qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 1992-yil 2-iyulda “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonunning qabul qilinishi bu sohaga qaratilayotgan e’tiborning kuchayishga sabab bo‘ldi. 1997-yil 29-avgustda “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi ta’lim tizimida tub

islohatlar davrini boshlab berdi . Ta’lim tizimiga e’tibor ikkinchi hukumat davrida yanada kuchaytirildi.Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning hukumat rahbari sifatida imzolagan birinchi qonun hujjati 2016-yil 14-senatabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunni imzolashi biz yoshlarga qaratilayotgan e’tibor namunasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.Mamlakatimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil qiladi. Ularning yaxshi ta’lim olishi uchun yetarli shart sharoitlar yaratilgan. Prezidentimiz tomonidan 5 tashabbus g‘oyasining ilgari surilishi yoshlar ta’lim-tarbiyasini rivojlantirish bo‘yicha yangi davrni boshlab berdi.

Birinchi tashabbus: Yoshlarni madaniyat va san’at muassasalariga keng jalb qilish.

Ikkinchi tashabbus: Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, sport inshooatlarining qamrovini oshirish.

Uchinchi tashabbus: Aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish chora tadbirlari.

To‘rtinchi tashabbus: Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish chora tadbirlari.

Beshinchi tashabbus: Hududlarda tikuv-trikotaj maxsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish va xotin-qizlar bandligini ta’minalash chora tadbirlari. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu tashabbus O‘zbekiston xalqi, ayniqsa yoshlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinib, qisqa vaqt ichida mamlakat bo‘ylab keng quloch yoydi. Hududlarda madaniyat, san’at va musiqa maktablarining moddiy bazasi va ulardan foydalanish holati yaxshilandi. Yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, 1,5 mingta to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Hatto eng chekka hududlarda ham yoshlar teatr studiyalari, “Yoshlar klublari” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, mamlakatimiz miqiyosidagi 12 mingdan ortiq sport inshooatlariga o‘smlarni keng miqiyosida qamrab olish chora tadbirlari izchil yo‘lga qo‘yildi. Chekka hududlardagi sport maktablarining zaruriy jihozlar bilan ta’milanishi va maktablar sonini ko‘paytirish chora tadbirlari ishlab chiqildi. Yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash va ularni internetdan unumli foydalanishini yo‘lga qo‘yish maqsadida Raqamli texnologiyalar markazlari tashkil qilindi. Xotin qizlarni ish bilan ta’minalash maqsadida tashabbus doirasida 100 dan ortiq tikuv-trikotaj korxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Fitrat “bu dunyo kurash maydonidir. Sog‘lom tan, o‘tkir aql va yaxshi axloq bu maydon quolidir” deb aytganlarida yuz karra haq edilar. Bugungi kunda yoshlarning ta’lim olishi, zaruriy kasb-hunarni egallashi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berilgan. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus loyihasi yoshlar uchun to abad mustahkam qanot vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –Т.: Ma'naviyat, 2008. –B.19.
2. <https://strategy.uz/> /index.news. 2019-yil 29-iyul
3. <https://www.yoshlarovozi.uz> sayti.
4. Nuriddin Akramkulovich Saidkulov (2020). THE IMPACT OF THE REFORMS ON THE POLITICAL CULTURE OF YOUTH. Academic research in educational sciences, (1), 152-156. doi: 10.24411/2181-1385-2020-00022
5. Akramovich, Saidkulov N. "The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth." European Journal of Humanities and Educational Advancements, vol. 1, no. 2, 2020, pp. 7-9.
6. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.
7. Akramkulovich, S. N. (2020). International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding.
8. Saidkulov, N. A. (2020). ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(1).
9. Akramkulovich, S. N. (2020). METODOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH POLITICAL CULTURE ON THE BASIS OF INNOVATIVE-CREATIVE APPROACH. Восточно-европейский научный журнал, (5-5 (57)), 39-42.
10. Saidkulov, N. A. (2020). The Impact of the Reforms on the Political Culture of Youth. Academic research in educational sciences, (1), 152-15
11. Akramovich, S. N. (2020). The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 1(2), 7-9.
12. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.
13. Saidkulov, N. A. (2020). ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(1).
14. Akramkulovich, S. N. (2023). HISTORICAL ROOTS OF THE FORMATION OF EASTERN POLITICAL THOUGHT. World Bulletin of Social Sciences, 19, 173-176.
15. Saidkulov, N. ISSUES OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF YOUTH POLITICAL CULTURE IN THE NEW RECONCILIATION PERIOD OF UZBEKISTAN.

16. Akramkulovich, S. N. (2023). JAMIYAT SIYOSIY TAFAKKURI SHAKLLANISHINING TARIXIY ILDIZLARI. SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI, 2(3), 1-
17. Акрамкулович, С. Н. . (2023). ЖАМИЯТ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *Miasto Przyszlosci*, 36, 455–460.
18. Saidkulov Нуриддин Акрамкулович.,.. (2023). ЖАМИЯТ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization: International Scientific and Practical Conference*, 48–53.
19. Saidkulov , N. (2023). INSON KAPITALINI RIVOJLANIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(11), 169–174. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/23849>
20. Saidkulov, Nuriddin. "ISSUES OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF YOUTH POLITICAL CULTURE IN THE NEW RECONCILIATION PERIOD OF UZBEKISTAN."
21. Saidkulov, N. (2023). INSON KAPITALINI RIVOJLANIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(11), 169-174.
22. Akramkulovich Nuriddin Saidkulov. (2023). PROBLEMS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT IN ENSURING THE STABILITY OF SOCIETY. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 233–241. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-25>